




EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024




INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





"Layli va Majnun" dostonida onomastik birliklar

Qurbonova Gavhar Xurramovna

Termiz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

v.b.dotsenti, f.f.f.d. (PhD);

Saparova Mavjuda Donaboyevna

Termiz davlat pedagogika instituti

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning mashhur "Layli va Majnun" dostonida ishlatilgan onomastik birliklar, ularning funksiyasi va ma'nosi tahlil qilinadi. Onomastik birliklar — shaxs, o'rin-joy, voqea yoki narsa nomlari orqali matnga ma'no beruvchi lingvistik birliklar sifatida qaraladi. Dastlabki qahramon nomlari (Layli, Majnun) mavzuga mos ravishda harakterlarni ifodalaydi va ularning ruhiy holatini to'liq ifodalab beradi. Shu bilan birga, onomastik birliklar dostonning estetik va madaniy vaziyatini shakllantiradi, o'quvchida obrazlarni aniq tasavvur qilishda yordam beradi.

Kalit so'zlar: onomastika, shaxs nomi, toponim, doston, Alisher Navoiy, Layli va Majnun, lingvopoetika, madaniyat, arab qabilalari, syujet

Аннотация. В данной статье рассматриваются ономастические единицы в знаменитом поэме Алишера Навои «Лейли и Маджнун», их функции и значение. Ономастические единицы — это языковые средства, которые посредством имен людей, мест, событий или объектов придают тексту смысл. Имена главных героев (Лейли, Маджнун) отражают характеры и эмоциональное состояние героев. Ономастические единицы также формируют эстетический и культурный контекст поэмы, позволяя читателю чётко представлять образы.

Ключевые слова: ономастика, имя собственное, топоним, поэма, Алишер Навои, Лейли и Маджнун, лингвопоэти, какультура, арабские племена, сюжет.

Annotation. This article examines the onomastic units in Alisher Navoi's famous poem "Layli and Majnun," their functions, and meanings. Onomastic units are linguistic tools that give meaning to a text through the names of people, places, events, or objects. The names of the main characters (Layli, Majnun) reflect their personalities and emotional states. Onomastic units also shape the aesthetic and cultural context of the poem, allowing readers to clearly visualize the characters and

Alisher Navoiy buyuk shoir, davlat arbobi va vazir sifatida butun dunyoga ma'lum-u mashhurdir. Shoir bizga qoldirgan adabiy me'ros xalqimiz uchun bebaho boylik. Ayniqsa, "Xamsa" dagi "Layli va Majnun" alohida ahamiyatga ega. Dostonda onomastik birliklarning o'rne beqiyos. Doston

qahramonlarining ismlari, qabilalar nomlari va joy nomlari nafaqat ularning o'zgacha xususiyatlarini ifodalaydi, balki o'quvchida estetik tasavvur namoyon qiladi. Joy nomi sifatida berilgan Quddus nomi ham hammaga ma'lum-un mashhur. **Quddus** — arabcha so'z bo'lib, "**muqaddas, pok, baholi**" degan ma'nolarni anglatadi (O'TIL.). Asarda Muhammad payg'ambardan Me'roj kechasi taralgan nur Quddusning qorong'u kechalarini yoritilishi asarda aytib o'tilgan.(asar 259-bet) . **Layli** — arabcha "**layl**" (ليل) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "**tun**", "**tunda tug'ilgan**", "**tunday sokin va muloyim**" degan ma'nolarni anglatadi (O'TIL.). Asarda esa Layli nomi noziklik, latofatlilik, sirli go'zallikni tasvirlaydi. Jozibador go'zalga Layli deb ism qo'yding, unga go'zal husni bilan oshiqlarni telba qiladigan sehr baxsh etding.(asar 266-bet)

Majnun-ishq, muhabbat bobida devona bo'lgan kimsa; savdoyi degan ma'non bildiradi (O'TIL.). Asarda Majnunning muhabbati ba'zan uni hayotdan chetlatadi, lekin shu iztirob orqali u ruhiy yetuklik va falsafiy qarashlarga ega bo'ladi.

Dasturxon, bog'lar, tog'lar, shaharlar, Layli uyi, karvon yo'li, qabila markazi, hovli kabi toponimlar doston voqealarini yanada jonli qiluvchi unsurlar sifatida foydalaniladi. Binobarin, ularning har qaysisi voqea rivojini ta'minlaydi va qahramonlarning harakatlariga vaziyat hosil qilish ga yordam beradi.

Onomastik birliklar tahlilida ularning vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin.

1. **Shaxs nomi vazifasi:** qahramon harakterini, ularning ijtimoiy va madaniy rolini ochib beradi.
2. **Toponim vazifasi:** dostonning geografik va madaniy vaziyatini shakllantiradi.
3. **Simvolik vazifasi:** nomlar orqali mavhum tushunchalar – muhabbat, fidoyilik, tashvish – aks ettiriladi.
4. **Estetik vazifasi:** matnga ritm, ohang va badiiy go'zallik beradi.

Shuningdek, Navoiy dostonida foydalanilgan tarixiy va madaniy onomastik birliklar o'quvchiga o'sha davr hayotini tasavvur qilishga ko'maklashadi. Bu birliklar matnda ishonchli va aniq madaniy vaziyatni hosil qilishda yordam beradi. Bundan tashqari, poetik obrazlarni yanada rang-barang qiladi.

Olib borilgan izlanishlar shuni anglatadiki "Layli va Majnun" dostonida onomastik birliklar nafaqat nomlar ma'nosini ifodalaydi, balki ular doston mazmunini, qahramonlar o'rtasidagi aloqalar va o'quvchi fikrlashini rivojlantiradigan asosiy til birliklaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoi A. Layli va Majnun. – Toshkent, 2000. – 156 b.
2. Erkinov B. Onomastika va adabiy matn. – Toshkent, 2010. – 112 b.
3. Sobirov S. O'zbek klassik adabiyoti va lingvistika. – Samarqand, 2015. – 134 b.